

---

## Keksalarga hurmat – ulug' saodat

✍ Rishton tumanida “Keksalar haftaligi” doirasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Kexsa avlod vakillariga alohida e'zoz va e'tibor ko'rsatilayotir. Nuroniyalar tayanch tog'larimiz, ustunlarimizdir. Ular maslahat bersa, uzoqni ko'zlaydi, duosi orqali el-yurt tinchligi, mehr-muhabbati, dasturxon qut-barakasi, yoshlar kamolotini niyat qiladi. Qayerda keksalar bo'lsa, ularga e'tibor bo'lsa, shu joyda fayz bor, baraka bor. Shu bois ham mamlakatimizda ularni ijtimoiy himoya qilish, turmush sharoitini yaxshilash va mazmunli hayot kechirishlarini ta'minlashga muhim e'tibor qaratilmoqda.

□ Rishton tumanida “Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos ezgu fazilat” shiori ostidagi “Keksalar haftaligi” doirasida turli tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Ana shunday uchrashuvlardan biri Zohidon MFYda o'tkazilib, tumandagi 13-33-20- maktablarning 60 nafardan ortiq o'quvchilariga Vatan tayanchi embelemasi va guvohnomasi tantanali ravishda topshirildi.

Tadbirda Tuman hokimining maslahatchisi, Nuroniy jamg'armasi tuman bo'limi raisi T. Abdurahmonov, tuman mudofaa bo'limi xodimlari, mahalla faoli G'. Holboyev, iste'fodagi polkovnik A. Isroilov, Amirobod javohiri fermer xo'jaligi rahbari A. Niyozovlar ishtirok etishdi.

2023-10-05 15:27:35